IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

ISLOMDA DINIY BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARI

Husniya Muhammadnazirova
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
Islom instituti bakalavr bosqichi
4-kurs talabasi
+99888 496 06 77
https://doi.org/10.5281/zenodo.20561209

Glaballashuv sharoitida diniy bag‘rikenglik masalasi ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va turli konfessiyalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Islom dini ko‘pincha noto‘g‘ri talqinlar sabab bag‘rikenglikka ziddek ko‘rsatilib kelinadi. Aslida esa Qur’oni karim va mo‘tabar islomiy manbalarda e’tiqod erkinligi, adolat, zo‘ravonlikni rad etish hamda boshqa din vakillari bilan tinch-totuv yashash tamoyillari aniq va ravshan bayon qilingan. Shu bois, Qur’oni karimda diniy bag‘rikenglikning asosiy tamoyillari qanday bayon qilinganini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Dinga majburlashning man etilishi. Qur’oni karimda diniy bag‘rikenglikning eng asosiy tamoyillaridan biri sifatida dinga majburlash qat’iyan rad etiladi:

“Dinga majburlash yo‘q”[1], (Baqara surasi, 256-oyat). Imom Tabariy ushbu oyat tafsirida shunday deydi: “Alloh taolo bandalarini iymonga majburlashni man qildi, chunki haq yo‘l dalil bilan ravshan bo‘ldi. Kim uni qabul qilsa — o‘zi uchun, kim rad etsa — o‘z zarariga bo‘ladi”[2]. Imom Qurtubiy esa, “Bu oyatning umumiy qoida ekanini ta’kidlab, islom diniga kirish majburlash bilan emas, balki ixtiyor va idrok bilan bo‘lishi lozimligini bayon qiladi”[3].

Misol qilib, Islom tarixida fath qilingan hududlarda yahudiy va nasroniy aholi o‘z dinida qolgan holda yashagan, ularning ibodatxonalari saqlab qolinganini aytish mumkin. Bu holat oyatning amaliy tatbiqi hisoblanadi. Ilohiy diyonatlarning ibodat makonlari muhtaram joylardir, musulmonlarning masjidlari kabi ularni ham himoya va mudofaa qilish lozim.

“Agar Alloh odamlarning ba’zilarini ba’zilari bilan daf qilib turmasa, uzlatgohlar, kanisalar, butxonalar va Allohning nomi ko‘plab zikr qilinadigan masjidlar vayron qilingan bo‘lur edi”[4], (Haj surasi, 40-oyat).

2. E’tiqod tanlash erkinligi va inson mas’uliyati. Qur’onda inson tanlov huquqiga ega ekani ochiq bayon qilinadi:

“Kim xohlasa iymon keltirsin, kim xohlasa inkor qilsin”[5], (Kahf surasi, 29-oyat).

Faxriddin Roziy bu oyat tafsirida shunday deydi: “Bu oyat majburlashni emas, balki tanlov erkinligini bildiradi. Biroq tanlov ortidan javobgarlik kelishini ham eslatadi”[6]. Bu oyat diniy bag‘rikenglik bilan birga, insonning axloqiy va oxirat mas’uliyatini ham o‘z ichiga oladi.

3. Boshqa din vakillari bilan ba'zi muomala bitimlarini ham muboh qilinganligi.

---

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. I. – B. 253.
[2]Imom Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Jomi’ al-bayon ‘an ta’vili oyil-Qur’on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2005. – J. V. – B. 412.
[3] Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Qurtubiy. Al-Jomi‘ li-ahkom al-Qur’on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2006. – J. III. – B. 280.)
[4] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. IV. – B. 31.
[5] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. III. – B. 476.
[6] Imom Faxriddin Muhammad ibn Umar ar-Roziy. Mafotih al-g‘ayb. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-‘arabiy, 2004. – J. VII. – B. 12.

“Kitob berilganlarning taomi siz uchun haloldir. Sizning taomingiz ular uchun haloldir. Afiyfa mo‘minalar va sizdan oldin kitob berilganlardan bo‘lgan afiyfalar ham, agar iffatli bo‘lgan holingizda, zinokor bo‘lmay va o‘ynash tutmay mahrlarini bersangiz, sizga haloldir”[7], (Moida surasi 5-oyat).

Imom Qurtubiy bu oyat tafsirida shunday deydi: “Bu oyat musulmonlar va ahli kitob orasidagi ijtimoiy yaqinlik va muomalaga shariat ruxsat berganining eng kuchli dalilidir”. Ushbu oyat asosida Islom fiqhida ahli kitoblar bilan taomlanish, ular bilan savdo-sotiq qilish va nikoh aloqalari joiz deb e'tirof etilgan. Payg‘ambarning (alayhissalom) ahli kitobdan qo‘shnilari bo‘lgan. Ular bilan yaxshi qo‘shnichilik qilar, hadya berib, ulardan qabul etardilar. Habashiston nasroniylarining vakillari kelganida Rasulullоh (alayhissalom) ularni masjidga tushurib, o‘zlari ziyofatini berib, xizmat qildilar. U zot shu kuni bunday deganlar: “Bular as'hobimizga ikromli edilar, men o‘zim ularni ikrom etmoqni xush ko‘raman”[8]. Albatta, odamlarning dinlaridagi ixtiloflari bir-birlarini o‘ldirishlariga yoki bir-birlariga adovat qilishlariga sabab bo‘lmasligi kerak. Balki ezgu ishlarni qilishda, yovuzlikka qarshi kurashda o‘zaro hamkor bo‘lishlari lozim.

“Yaxshilik va taqvo yo‘lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo‘lida hamkorlik qilmang”[9], (Moida surasi, 2-oyat). Ushbu mo‘jazgina jumla dunyodagi barcha hamkorliklar uchun asosiy qoida hisoblanadi. Islomda hamkorlikning bosh sharti yaxshilik va taqvodir. Agar shu shart vujudga kelsa, hamma bilan hamkorlik qilinaveradi. Ammo qayerda gunoh va yomonlik bo‘lsa, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, hamkorlik qilinmaydi.

4. Diniy munozarada hikmat va go‘zal muomala. Islomda da’vat va bahs madaniyati muhim ahamiyatga ega.

“Robbing yo‘liga hikmat va go‘zal nasihat bilan da’vat qil”[10], (Nahl surasi, 125-oyat).

Imom G‘azzoliy bu oyatga sharh berib shunday deydi: “Hikmat — bu so‘zni joyida va qalblarni og‘ritmasdan ayta bilishdir”[11]. “Odamlar dinlarida ixtilof etsalar-da, bir birlari bilan go‘zal shaklda, odob doirasida, hujjat va qanoatlantirish bilan mujodala etishlari mumkin”[12].

“Ahli kitoblarning zulm qilganlaridan boshqalari bilan faqat yaxshi uslubda mujodala etinglar”[13], (Ankabut surasi, 46-oyat). “Agar ummat dinda unga tajovuz qilganlardan g‘olib kelsa, dinlarini tark etishga mujburlash bilan ulardan intiqom olish va aqidalari to‘g‘risida ularni quvg‘in qilish mumkin emas. Ular davlatning sultoni (hukmronligini) e’tirof etishlari va (biznikidek huquqqa va biznikidek majburiyatga) ega bo‘lishlari uchun davlatga sodiq yashamoqlarining o‘zi kifoya. Islom hazorasi poydevor bo‘lgan din erkinligining asoslari mana shulardir. U musulmonlarga Allohning barcha payg‘ambar va rasullariga iymon keltirishni, ularni hurmat va ehtirom-la zikr qilishni ularning izdoshlariga yomon munosabatda bo‘lmay, muloyim so‘zlash, ular bilan aloqada bo‘lish, yaxshi qo‘shnichilik bilan mehmondorchiligini qabul qilish va oilalar aralashib, qonlar qo‘shilib ketar darajada qarindosh bo‘lishdek go‘zal

---

[7] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. II. – B. 18.

[8] Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad. Islom hazorasi. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 50.

[9] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. II. – B. 6.

[10] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. III. – B. 382.

[11] Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 2005. – J. II. – B. 23.

[12] Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad. Islom hazorasi. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 48.

[13] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. IV. – B. 421.

muomalani vojib etadi. Islom ularning ibodat makonlarini himoya qilishni, e'toqodlariga aralashmaslikni, umumiy huquq va majburiyatlarda musulmonlar bilan barobar ko'rishni va hurmatlari, hayotlari hamda kelajaklarini musulmonlarning hurmat, hayot va kelajaklari muhofaza etilganidek saqlashni musulmon davlatiga lozim qildi"[14]. Islomda qadimdan g'ayridinlarga go'zal mumala qilinganiga namunalar ko'p. Andalusiyada musulmonlar bilan birga yahudiy va nasroniylar ilm fan, savdo-sotiq ishlarida hamkorlik qilganlar. Ko'plab yahudiy olimlar islom himoyasi ostida faoliyat yuritgan. Musulmonlarning go'zal xulqlari va adolatlari sabab ularning ko'plari ixtiyoriy ravishda Islom dinini qabul qilgan.

5. Shuni ta'kidlash kerakki, Qur'oni karim bag'rikenglikni ibodat darajasiga ko'targan hamda uni Allohning roziligiga bog'liq ekanini ta'kidlagan. Alloh taolo aytadi:

"Yo'q! Kimki yaxshilik qilgan holida yuzini Allohga topshirsa, unga Robbi huzurida ajr bordir. Ularga xavf yo'q va ular xafa ham bo'lmaslar"[15], (Baqara surasi, 112-oyat).

"Payg'ambar Muhammad (alayhissalom) boshqa insonlarga nisbatan nafrat, adolatsizlik, erkinlikni cheklash hamda ularning e'tiqodi, irqi, tana rangi yoki millati sababli zulm qilishdan qaytarganlar. Buning misoli u zot (alayhissalom) Madinaga kirganlarida musulmon bo'lmaganlar bilan tuzgan shartnomasi bo'lib, ushbu shartnomada g'ayridinlar musulmonlar bilan bir xil huquq va burchlarga ega fuqarolar sifatida belgilangan edi. Muhammad (alayhissalom) sahobalariga ularga yaxshi muomala qilish, yordam berish, himoya qilish va ularga hech qanday zarar yetkazmaslikka buyurdilar. Misol uchun, Payg'ambar (alayhissalom) Najron qabilasiga mansub nasroniy dinidagi elchilarni kutib olganlarida ularga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatdilar. Hatto ularning ibodat vaqti bo'lib qolganida, Masjidi nabaviyda ibodatlarini ado etishlariga ruxsat berdilar. Najron elchilari quyosh chiqar tomonga qarab ibodatni boshlab yuborganlarida, Payg'ambar (alayhissalom) sahobalariga: "Ularga tegmanglar", dedilar. Shu tariqa, g'ayridin elchilar Masjidi nabaviyda ibodatlarini emin-erkin ado etdilar. Payg'ambar (alayhissalom) Najron qabilasi elchilari bilan muloqot olib borganlarida ularga islom dinini majburan taklif etmadilar, balki istasalar o'z dinlarida qolishlari mumkinligini aytdilar. Shundan so'ng Najron elchilari: "Siz ham o'z diningizda, biz ham o'z dinimizda qolamiz. Ammo, biz bilan o'zingiz rozi bo'lgan sahobalaringizdan birini yuboring, u o'rtamizda mol-mulklarimizni taqsimlashda hakam bo'lsin, chunki biz sizga ishonamiz", dedilar"[16].

Payg'ambarning (alayhissalom) ushbu diniy erkinlik to'g'risidagi ko'rsatmalariga u zotdan keyin xalifalar ham amal qilgan. "Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) Baytul Maqdisga fotih sifatida kirganida, u yerning masihiy aholisi u yerda yahudiylar bilan birga yashamasliklarini shart qilib qo'yishganda, bunga rozi bo'lganligini yaxshi bilamiz. U "Quddus al-Kubro" cherkovida ekanligida asr namozining vaqti kirib qolganda, u yerda namoz o'qishdan bosh tortdiki, keyinchalik musulmonlar buni dalil qilib cherkovni masjid qilib olmasinlar, deb"[17].

"Diniy erkinlikning ko'rinishlaridan yana biri – vazifalarning aqidasi, mazhabidan qat'iy nazar mustahiq, munosib kishiga berilishidir. Shu sababdan umaviy va abbosiylar zamonida masihiy tabiblar xalifalar diqqat markazida bo'lishgan. Ular uzoq vaqt mobaynida Bog'dod va Damashqdagi tibbiyot madrasalariga boshchilik qilishgan. Nasroniy tabib Ibn Asol Muoviyaning xos tabibi edi. Sarjun esa kotibi bo'lgan. Marvon esa boshqa bir ismi Is'hoq bo'lgan Isnosiyusni Misrdagi ba'zi hukumat mansablariga tayinlagan"[18].

---

[14] Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad. Islom hazorasi. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 49.

[15] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Tuzatilgan va to'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – J. I. – B. 92.

[16] Sherzodjon Umaraliyev. Islomda diniy bag'rikenglik. https://share.google/RXK5DCJdcUxC7UifE. Qo'yilgan sana: 12.11.2024. Olingan sana: 10.02.2026.

[17] Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad. Islom hazorasi. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 50.

[18] Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad. Islom hazorasi. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 53.

Ushbu voqealar bir jamiyatda yashayotgan turli din vakillarining taraqqiyot, vatan himoyasi, tinchlikni ta’minlashga qaratilgan o‘zaro aloqalariga hamda musulmonlarning adolatlari, ezgu ishlarda xayrixohliklari va hamkorliklariga yaqqol misol bo‘ladi. Islom dini ushbu yo‘nalishlarda boshqa din vakillari bilan mustahkam do‘stlik aloqalarini o‘rnatishga chaqiradi.

Qur’oni karim va mo‘tabar tafsirlar shuni ko‘rsatadiki, islom dini diniy bag‘rikenglik, e’tiqod erkinligi va adolat tamoyillarini yuksak darajada e’tirof etadi, hamda dinlararo munosabatlarda muvozanat, adolat va o‘zaro hurmat prinsiplarini ustuvorligini tasdiqlaydi. Ulamolar qavllari va tarixiy misollar bu tamoyillarning faqat nazariy emas, balki amaliy hayotda ham tatbiq etilganini isbotlaydi. Shuningdek islomda diniy bag‘rikenglik nafaqat axloqiy mezon, balki huquqiy ijtimoiy tamoyil sifatatida ham mustahkam asoslangan. Bugungi kunda ushbu qadriyatlar jamiyatda tinchlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.